Yagona Vatan, yagona xalq bölib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

KONÇILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan çiqa boşlagan

№21 (831), 2026-yil, 14-noyabr

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ Yoşlar siyosati

“KELAJAKKA – BUGUNDAN QADAM” LOYIHASI AMALDA



Joriy yilning 3-4-noyabr kunlari bir guruh urgutlik maktab öquvçilari “Kelajakka – bugundan qadam” loyihasi doirasida Navoiy viloyatiga sayohat qilişdi.

Mazkur loyiha Urgut tumanidagi Abdusaid Köçimov kutubxonasi hamda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ hamkorligida taşkil etilgan bölib, yoşlarni kombinat hamda Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universiteti faoliyati bilan yaqindan taniştiriş, işlab çiqariş va umumta’lim maktablarini integratsiyalaşni rivojlantiriş, konçilik va metallurgiya sohalariga bölgan qiziqişni yanada oşiriş, ularni uşbu yönalişlarda bilim oliş va kasb egallaşga yönaltirişdan iborat.

Bugungi kunda kombinat tizimida qariyb 51 ming kişi mehnat qilmoqda. Ularning 12 ming nafarini 30 yoşgaça bölgan yoşlar taşkil etadi. Ayni paytda zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari, kon-şaxtalar, sex va uçastkalarni ilm va kasb çöqqilarini puxta egallagan yoşlar boşqarmoqda.

Dastlab öquvçilar Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universitetida bölib, ta’lim jarayonlari, zamonaviy öquv laboratoriyalari va ularda olib borilayotgan işlar bilan tanişdilar.

Bu oliygoh yurtimizda malakali mutaxassislar va zamonaviy muhandislar tayyorlab berayotgan yetakçi oliygohlardan biridir. Hozirda universitetda 10 ming 800 nafar talabaga 441 nafar pedagog ta’lim beradi. Ayni paytda 6 ta fakultetda 27 ta bakalavriat va 23 ta yönalişda magistratura yönalişlari mavjud.

– Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga sayohatimiz davomida katta taassurotlarga ega böldik. Bu yerga kelgan öquvçi-yoşlarning aksariyati kasb tanlaş, kelajakdagi rejalari va öz oldiga qöygan maqsadlari böyiça ma’lumot olişga qiziqdi. Şu jihatdan bugungi uçraşuv biz uçun ayni muddao böldi, – deydi 37-umumta’lim maktabi öqituvçisi Ergaş Hamroyev. – Birinçi çorak yakunidagi ta’tilning dastlabki kuni şunday mazmunli tadbir bilan boşlangani ham quvonarli. Mahallamizdagi 3-sonli kasb-hunar maktabining sanoat yönalişida, xususan, elektrlaştiriş va avtomatlaştiriş sohalarida tahsil olayotgan öquvçilarni ham olib kelganmiz. Ular bugungi tanişuvdan söng kelajakda şu sohada işlaş, öz kasbining yetuk mutaxassisi böliş istagini bildirişdi.

Ayni paytda öquvçilarimizning ön nafardan ortiği tegişli milliy sertifikatlarga ega. Bunday sertifikatlar oliy ta’lim muassasasiga kirişda inobatga olinişini eşitib, ularning quvonçi yanada ortdi. Yoşlar kelgusi yilda yuqori ball töplab, aynan şu universitet talabasi böliş maqsadida ekanini aytişdi.





Bu kabi uçraşuvlar biz, ustozlar uçun ham muhim tajriba maktabidir. Çunki ular orqali yoşlarga kasb tanlaşda töğri yöl körsatiş, ta’lim jarayonida qaysi jihatlarga köproq e’tibor qaratiş zarurligini anglab olamiz. Ilgari öquvçilarimiz qiziqqan ayrim sohalar böyiça savollariga yetarliça javob berişda qiynalardik. Bugun esa universitet dekanlari va professor-öqituvçilari ularni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berib, kelajak kasbini tanlaşda muhim yöl-yöriq körsatdi.

Tadbir iştirokçilari universitet iqtidorli talabalarining ixtiro va startap loyihalari körgazmasi bilan ham taniştdilar.

Universitetning majlislar zalida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Boşqaruv raisi – Boş direktori, Özbekiston Qahramoni, senator Quvondiq Sanaqulov hamda Özbekiston Milliy axborot agentligi Boş direktori, senator Abdusaid Köçimov iştirokida “Senatorlar va yoşlar” uçraşuvi ötkazildi.

Unda, yoşlar bilan oçiq muloqot taşkil etilib, ta’lim, ilm-fan, kasb tanlaş va kelajakdagi imkoniyatlar haqida fikr almaşildi.

– Men Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universitetida faqat öğil bolalar öqiydi, deb öylardim. Ammo bu yerda köplab xotin-qizlar hamda ayollar işlayotganini, qizlar öqiyotganini kördim va men ham ularga havas qildim, – deydi urgutlik öquvçi Ziyoda Bahodirova. – Universitetda dars jarayonlari, öquv va laboratoriya xonalari bilan taniştik. Biz ularning zamonaviy jihozlanganligini kördik va laboratoriya maşğulotlarini birga bajardik. Navoiyga kelganimdan juda xursandman. Bizga konçilik sohasidagi iş jarayonlarini tuşuntirib berişdi. Maktabni bitirgaç, uşbu oliygohda öqişni niyat qildim.

Uçraşuvda Navoiy davlat universiteti rektori Muhiddin Kalonov sözga çiqib, ÖzA Boş direktori Abdusaid Köçimovga Navoiy davlat universitetining faxriy professori unvonini topşirdi.

Uçraşuv sönggida Abdusaid Köçimov kutubxonasi, Urgut tumanidagi 37-umumta’lim maktabi hamda Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universiteti örtasida uç tomonlama memorandum imzolandi.

Öquvçilar “Farhod” madaniyat saroyida joylaşgan “NKMK tarixi” muzeyiga sayohat qilib, mamlakatimiz konçilik sanoatining şakllaniş tarixi, taraqqiyot bosqiçlari va bugungi yutuqlari haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega böldilar.

Yoşlarning böş vaqtlarini mazmunli taşkil etiş maqsadida, “Farhod” madaniyat saroyida “Breyn-ring” intellektual öyini ham ötkazildi. Göolib jamoalar NKMK xodimlari kasaba uyuşmasi Kengaşi va Yoşlar yetakçilari Kengaşi tomonidan diplom hamda esdalik sovğalari bilan taqdirlanişdi.

Tadbirning ikkinçi kunida urgutlik öquvçi yoşlar uçun kombinatda mahalliylaştirilgan va import örnini bosuvçi mahsulotlar işlab çiqariş böyiça olib borilayotgan işlar bilan taniştiriş maqsadida Navoiy maşinasozlik zavodiga ekskursiya taşkil etildi.

A.BÖRIYEV.

■ 11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni

INSON QADRI ULUĞLANGAN JAMOADA

yuksaliş va barqarorlik böladi

11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni butun respublikamizda bölgani kabi “Yangi Özbekistonda yangi kasaba uyuşmalari” şiori ostida Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham katta tayyorgarlik bilan keng nişonlandi. Tantanalarda kasaba uyuşmalari mehnati, yutuqlari e’tirof etildi.





Yangi Özbekiston tarixiy davrga qadam qöydi. Muhtaram Yurtboşimiz Şavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan keng kölamli islohotlar yurtimiz taraqqiyoti, “Inson qadri uçun!” tamoyili esa yurtdoşlarimiz manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixida yangi davr boşlandi. Yirik investitsion loyihalar asosida 4 ta zamonaviy sanoat majmuasi – 5, 6, 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining 2-navbati va boşqa yirik sanoat majmualari, ijtimoiy obyektlar barpo etildi. Buning natijasida kombinatda oltin işlab çiqariş 2016-yildagi 72,7 tonnadan - 98,2 tonnaga yetdi yoki 35 foizga, kumuş işlab çiqariş esa ikki baravarga oşdi. Bunday yutuqlar bilan korxonamiz zamonaviy kompaniya maqomiga ega bölib, oltin işlab çiqariş böyiça dunyoda 4-öringa çiqdi.

Bu - qirqdan ortiq turli millat va elat vakillari birdamligi, fidokorona mehnati, qariyb 51 ming nafar kişilik ulkan jamoa, şundan, 12 ming nafar yoşlar, 6,2 ming nafar xotin-qizlarimizning fidokorona mehnati, izlaniş va intilişi natijasidir. Bunday yutuqlarning qölga kiritilişida eng avvalo, mehnatkaş hamkasblarimizning yaratuvçanlik va bunyodkorlik şijoati mujassamdir. Tinimsiz mehnat, ilm, intiliş, izlaniş, vatanparvarlik, kasbga sadoqati tufayli şunday natijalarga erişyapmiz.

Xususan, “Kasaba uyuşmalari töğrisida”gi yangi Qonun va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi qabul qilingani, olti yil avval 11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni sifatida belgilangani, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi taşkil etilgani, Toşkent şahri markazidagi 100-yildan ortiq tarixga ega sobiq madaniyat maskani ta’mirlanib, Kasaba uyuşmalari saroyi sifatida yangi qiyofada bunyod etilgani, Özbekiston kasaba uyuşmalarining tarixi muzeyi tiklangani va boşqa amaliy işlar çinakam ğamxörlik namunasidir.

NKMK xodimlari kasaba uyuşmasi Kengaşi respublikamizdagi eng yirik jamoat taşkilotlaridan hisoblanadi. U özining 72 ming nafar a’zosi, 7 ta Birlaşgan kasaba uyuşma qömitasiga ega. Şunga yaraşa, işlar, vazifalar kölami keng. Buni amalga oşirişda Jamoa şartnomasi amaliy-huquqiy dasturulamal bölayapti. Kengaşimiz öz atrofiga “NKMK” AJ, “NKMK jamğarmasi” DM va Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universitetini birlaştirgan.

Kengaşimiz, bu – ulkan ijtimoiy mas’uliyatni zimmasiga olgan, işçi-xodimlarning mehnat bozoridagi eng işonçli qalqoni, qonuniy himoyaçisi, xodim bilan iş beruvçi örtasidagi hamkorlikni mustahkamlovçi köprik, şu bilan birga, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, hamkasblarimiz uçun munosib yaşaş va iş şaroitlarini yaratiş yölida faoliyat körsatib kelayotgan jamoat taşkilotidir.

Işçi-xodimlarimiz öz huquqlari himoyalangani, mehnati qadrlanayotgani va ijtimoiy jihatdan qöllab-quvvatlanayotganini amalda his etib, bundan ruhlangan holda, bor kuç-ğayrati, bilim va tajribasini NKMKni jahonning yetakçi oltin işlab çiqaruvçi kompaniyalari safiga olib çiqiş, yurtimiz taraqqiyotiga öz hissalarini qöşişga safarbar etişmoqda. Bu işlarni ijtimoiy şeriklik asosida amalga oşirişda Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati bizni qöllab-quvvatlab kelmoqda.

Har qanday jamoada ijtimoiy himoyani kuçaytiriş, e’tibor va ğamxörlik ifodasi odamlarning işga munosabatini özgartiradi, ularga kuç bağişlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi. Bu faqat moddiy yordam emas, balki insonlar taqdiri uçun qayğuriş demakdir. Zero, inson qadri uluğlangan, mehnati qadrlangan, ijtimoiy mas’uliyat bor joyda, albatta, rivojlaniş, mas’uliyat böladi.

Davomi 2-betda

■ Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

5-noyabr kuni Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universitetida Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik B.S. Yöldoşev xotirasiga bağişlangan “Strategiyalaştiriş nazariyasi va amaliyoti” mavzusida IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bölib ötdi.

DOLZARB MASALALAR MUHOKAMA QILINDI



Anjumanda iqtisodiyot, sanoat va ta’limni strategik rivojlantiriş, tabiiy resurslardan oqilona foydalaniş hamda strategiyalaştirişga zamonaviy ilmiy yondaşuvlarni tatbiq etiş masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Xalqaro konferensiyada Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a’zosi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Vladimir Lvoviç Kvint, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Boşqaruvi raisi – Boş direktori, texnika fanlari doktori, professor, Özbekiston Qahramoni Quvondiq Sanaquloviç Sanaqulov hamda iqtisodiyot fanlari doktori, professor Irina Viktorovna Novikova iştirok etdi.

Anjuman davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişning dolzarb yönalişlari, strategik boşqaruv, innovatsiyalar hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida strategiyalaştiriş metodologiyasini qöllaş istiqbollariga bağişlangan ilmiy ma’ruzalar tinglanib, muhokamalar ötkazildi.

Konferensiyaning asosiy voqealaridan biri V.Kvint va Q.Sanaqulov ilmiy tahriri ostida tayyorlangan “Sanoat korxonalarida suv resurslarini strategiyalaştiriş: nazariya, metodologiya, amaliyot” nomli ilmiy monografiyaning taqdimoti böldi. Monografiyada akademik V.Kvintning strategiyalaştiriş nazariyasi va metodologiyasi asosida sanoat korxonalarida suv resurslaridan oqilona foydalanişning uzoq muddatli strategik ustuvor yönalişlarini şakllantirişga qaratilgan ilmiy - tadqiqotlar natijalari aks ettirilgan. Unda, işlab çiqilgan ilmiy yondaşuvlarni “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ misolida amaliyotga tatbiq etiş masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Konferensiya dasturidan “Strategiya va noonomika özaro boğliqligi: nazariya va amaliyot” mavzusidagi tanlov iştirokçilarini taqdirlaş marosimi ham örin oldi. Mazkur tanlovda akademik litsey hamda Qoraköl litseyi öquvçilari iştirok etdi. Tanlovning har bir iştirokçisiga yangi kitoblar sovğa qilindi.

Ozod NOSIROV.

■ 11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni



INSON QADRI ULUĞLANGAN JAMOADA

yuksaliş va barqarorlik böladi

Oxiri. Boşlanişi 1-betda

Korxonamiz misolida oladigan bölsak, mehnatkaşlarimiz huquqlarini himoya qiliş, xavfsiz mehnat şaroitini yaratiş, munosib iş haqi, ijtimoiy kafolatlar va turmuş darajasini yaxşilaş orqali hamkasblarimizni hayotidan rozi qilişga erişib kelyapmiz. Çunki, sohalar taraqqiyoti faqat iqtisodiy körsatkiçlar bilan emas, balki insonlarga bölgan e'tibor, ya'ni, yuksak ijtimoiy mas'uliyat bilan ham ölçanadi.

Iş faoliyati texnologik jarayonlardan tarkib topgan xodimlarimiz hayoti va mehnatini muhofaza qiliş, ular uçun xavfsiz mehnat şaroitlarini yaratiş, texnika xavfsizligini ta'minlaş, mehnatdan söng oilasi bağriga soğ-salomat qaytişi biz uçun muhim. Bu jihatlarga qaratilayotgan e'tibor, "Insonlar – kombinatning asosiy boyligidir!" ezgu ğoyasiga hamohang olib borilayotgan sa'y-harakatlarimiz, öz navbatida, kombinatning barqaror rivojlanişiga ijobiy ta'sir körsatmoqda.

Bugungi kunda oltita madaniyat maskanida yetti ming nafarga yaqin yoş iste'dodlarimiz tarbiyalanmoqda, töqqizta sport maskanlarida ön mingga yaqin işçi-xodimlar, oila a'zolari va farzandlari sport bilan şuğullanmoqda. Şuningdek, 562 mingdan ortiq kitob fondiga ega oltita kutubxonaning har biridan örtaça har yili 7-8 ming nafarga yaqin kitobxon doimiy foydalanmoqda. Şu bilan birga, yoz mavsumida 11 ta bolalarni soğlomlaştiriş oromgohlarida 12 ming nafardan ortiq bolajonlarimiz soğlomlaştirilmoqda.

Yuqorida inson qadri, soğlik-salomatligi haqida söz yuritganimiz bejiz emas. Maşaqqatli va matonatli mehnatdan söng hamkasblarimizni soğlomlaştiriş tizimli taşkil etilgan. Işçi-xodimlar, ularning farzandlari salomatligini asraşga qaratilgan tibbiy xizmatlar tizimi izçil rivojlantirilmoqda. Zamonaviy tibbiyot muassasalari, profilaktik köriklar işçi-xodimlar soğliğini mustahkamlaşda muhim örin tutadi. Ayniqsa, oğir va zararli mehnat şaroitida faoliyat yurituvçi işçilarga bölgan ğamxörlik insonparvarlik tamoyillarining amaliy ifodasidir.

Hamkasblarimizni soğlomlaştirişda sanatoriy va dam oliş maskanlarining örni beqiyosdir. Buning uçun zamonaviy talablarga javob beradigan 6 ta sihatgohga egamiz. Böstonliqdagi "Gornyak" pansionati, Zomindagi "NKMK" sanatoriysi, Nuroboddagi "Nurobod" sanatoriy-profilaktoriyasi, Karmanadagi "Metallurg" sanatoriy-profilaktoriyasi, Uçquduqdagi "Konçi" sanatoriy-profilaktoriyasi va Qiziltepadagi "Tödaköl" dam oliş bazasi şular jumlasidandir. Bundan taşqari, Özbekiston Respublikasidagi mavjud sanatoriylar, Rossiyaning Kislavodsk va Yalta şaharlaridagi "Özbekiston" sanatoriylari, Qirğizistondagi "Qirğiz dengizi sohili" sanatoriylariga ham yöllanmalar ajratilmoqda. Joriy yilning töqqiz oyida işçi-xizmatçilarimizni soğlomlaştiriş uçun şunday maskanlarga 11,8 mingdan ortiq yöllanmalar ajratildi.

Biz, faqatgina işçi-xodimlarimiz emas, balki ularning öğil-qizlariga ham zarur şaroitlarni yaratib berayapmiz. Çunki, barçamiz farzandlarimizning kelajagi, barkamol voyaga yetişi uçun mas'ulmiz! Bu masala "NKMK" AJ ma'muriyati va kasaba uyuşmasi Kengaşining doimiy e'tiborida bölib, ularni soğlomlaştiriş bilan birga, sport, san'at bilan şuğullanişlari, böş vaqtlarini mazmunli ötkazişlari uçun şaroitlar yaratiş, har xil bayram dasturlari uyuştiriş an'anaga aylangan.

Toğli va toğoldi hududlarda 11 ta bolalarni soğlomlaştiriş oromgohlarimiz mavjud. Navbahor tumanidagi "Sarmiş", Tomdi tumanidagi "Zarafşon", Paxtaçi tumanidagi "Bolajon", Kattaqörğon tumanidagi "Söğdiyona", Urgut tumanidagi "Kelajak", Böstonliq tumanidagi "Pahlavon" va boşqa oromgohlarimiz respublikamizning eng sölim göşalarida joylaşgan. Bu oromgohlar faqat hordiq oladigan maskan emas, balki özига xos hayot maktabi vazifasini ham ötamoqda. Bu maskanlar bolajonlarimizning mustaqil hayotga örganişi, jismoniy faolligi va könikmalarini oşiriş, tengdoşlari bilan döstlaşişi, sportga oşno bölişi, qobiliyatlarini yuzaga çiqarişi uçun ham xizmat qilmoqda.

Har yili yozgi ta'til davrida 12,5 ming nafarga yaqin jajji öğil-qizlarimizning sölim tabiat quynida maroqli dam olişini ta'minlab kelayapmiz. Mavsumni uyuşqoqlik bilan ötkaziş maqsadida, bu maskanlarga eng tajribali pedagog xodimlar, tarbiyaçilar, murabbiylar, psixologlar, xizmat körsatuvçilar jalb etilmoqda.

Jajji dam oluvçilarning yozgi ta'til mavsumini mazmunli ötkaziş, ularni turli tögaraklar va sportga qiziqtiriş uçun oromgohlarda madaniy-ma'rifiy keçalar, konsert dasturlari, sport-soğlomlaştiriş musobaqalarini ötkaziş, Buxoro viloyat qöğirçoq teatr tomoşalarini taşkil etiş an'anaga aylangan. "Şaxmat – aql gimnastikasi", "Mohir qöllar", "Til örganamiz", "Kitobxonlar", "Kompyuter savodxonligi", "Raqs", "Rasmlar jilosi" va boşqa tögaraklar faoliyati yölga qöyilgani, şuningdek, "Quvnoq startlar", futbol, qöl tennisi, basketbol, voleybol va boşqa sport öyinlari taşkil etilayotgani ijobiy samarasini bermoqda.

Har yili mavsum oldidan bu maskanlarni şay holga keltirişga katta tayyorgarlik köramiz. Jumladan, 2026-yilda oromgohlar moddiy-texnik bazasini mustahkamlaş, bu mavsumda faol iştirok etganlarni rağbatlantiriş va boşqa ezgu maqsadlar uçun kasaba uyuşmasi Kengaşi tomonidan 431 mln. söm sarflandi.

Özim ham mavsum boşlanişi bilan har bir oromgohga borib, yaratilgan şaroitlar, farzandlarimiz qanday dam olayotgani bilan qiziqaman. Har gal ularning quvonçi, maroqli dam olayotganini körib, davlatimizning kelajak avlodga bölgan çeksiz ğamxörligi, ular tinç-osoyişta, şunday dorilomon hayot bağrida kamolga yetayotganidan qalbim ğururga töladi.

Hayotimizning rivojlaniş darajasi nafaqat taraqqiyot, iqtisodiy yuksalişlar, balki xalqimizning madaniy saviyasi, madaniyat va san'atga bölgan e'tibori bilan ham belgilanadi. Aslida, madaniyat va san'at – bitta narsa. Lekin ta'rifi boşqa-boşqa. Ya'ni, madaniyat - millatning ma'naviy qiyofasi bölsa, san'at - iste'dod mahsulidir!

Bugungi kunda biz oltita ana şunday zamonaviy maskanlarga egamiz. Ular nafaqat işçi-xodimlarimiz, balki Navoiy, Samarqand, Jizzax aholisiga ham bayramlarda xizmat körsatib kelmoqda. Mazkur madaniyat muassasalarida 170 dan ortiq badiiy jamoalar va tögaraklar taşkil etganmiz. Ularda aksariyati yoşlar bölgan yetti ming nafarga yaqin iste'dodlar tarbiyalanmoqda.

Har yili respublika va xalqaro tanlovlarning köplab ğoliblari yetişib çiqmoqda. Buning uçun madaniyat va san'at vakillariga barça şart-şaroitlar yaratib berilgan. Bundan taşqari, ularni ruhlantiriş va rağbatlantiriş maqsadida, estrada, folklor, maqom yönalişlarida "Qizilqum san'at ğunçalari", "Qizilqum ovozi", "Qizilqum ohanglari", "Oltin meros" kabi an'anaviy tanlovlarni muntazam ötkazib kelayapmiz.

Natijada, ular orasidan haqiqiy talantlar, respublika va xalqaro tanlovlar ğoliblari, köplab davlat mukofoti sovrindorlari yetişib çiqmoqda. "Nihol" davlat mukofoti sohibi Şerzod Davronov, "Döstlik" ordeni va "Şuhrat" medali sohibi Serijan Janaxmetov, "Döstlik" ordeni sovrindori Feruza Musayeva, "Şuhrat" medali sohibi Marina Xaritonovalar madaniyat muassasalarimizda kamolga yetib, şunday yuksak e'tiroflarga sazovor bölişgan.

Badiiy jamoalarimiz har yili 3,6 mingdan ortiq madaniy tadbirlar ötkazib, poytaxtimizning nufuzli muassasalarida, çekka hududlar, bölinmalarda konsert dasturlari namoyiş etişmoqda. Özbekiston kasaba uyuşmalari saroyida namoyiş etilib kelinayotgan "Qizilqum javohirlari" konsert dasturi poytaxtlik muxlislar olqişiga sazovor bölayapti.

Keyingi yillarda bölinmalarimiz joylaşgan Navoiy, Zarafşon, Uçquduq, Nurobod şaharlari, Zarkent qörğoni, Marjonbuloq şaharçasida zamonaviy infratuzilma, ijtimoiy soha obyektlarini barpo etiş, eng muhimi, hamkasblarimiz, ularning oilasi, şu hududda yaşayotgan aholi uçun munosib yaşaş şaroitlarini yaratişga erişdik. Bugun uşbu obod manzillar zamonaviy qiyofasiga havasingiz keladi.

Misol tariqasida aytadigan bölsam, sönggi yillarda Zarafşon şahrida musiqali favvora va akvapark, "Umid" maxsus maktabgaça ta'lim taşkiloti, ixtisoslaştirilgan maktab-internati, Uçquduq şahrida "Orzu" istirohat va dam oliş maskani, "Oltinköl" sun'iy havzasi, Zarkent qörğonida akvapark, Qiziltepa tumanida Xalqaro şaxmat maktabi, Zomin tumanida "NKMK" sanatoriysi va boşqa köplab ijtimoiy soha obyektlari foydalanişga topşirildi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoyaga qaratilgan bu işlar zamirida inson qadrini uluğlaş, mehnatkaşlarga ğamxörlik qiliş va barqaror taraqqiyotni ta'minlaşdek uluğ maqsadlar, bu işlarning boşida esa dunyoga maşhur Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek qudratli korxona turibdi.

Biz uçun yer osti boyliklaridan ham qimmatli boylik, bu – zahmatkaş insonlarimiz! Kombinatimizning bugungi taraqqiyoti ham ana şu ikki kuç - zamonaviy texnologiya va inson mehnati uyğunligiga tayanadi. Keça Qizilqum bağrida boşlangan ulkan sanoat yöli bugun yangi bosqiçga qadam qöymoqda. Bu yölning borar manzili esa aniq - kuçli sanoat, texnologiya taraqqiyoti, munosib mehnat va farovon hayot.

Isroil RAHMATOV,
NKMK xodimlari kasaba uyuşmasi Kengaşi raisi.

■ Tibbiyot xodimlari kuniga

HAYOT VA SALOMATLIK HIMOYASIDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tibbiy-sanitariya xizmati ulkan korxona ijtimoiy infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning faoliyati minglab işçi-xodimlar, ularning oila a'zolari, şuningdek, kombinat faoliyat yuritayotgan hududlar aholisi salomatligini saqlaş va mustahkamlaşga qaratilgan. Yillar davomida mazkur xizmat kiçik tibbiyot punktlaridan xalqaro standartlarga mos zamonaviy köp tarmoqli soğliqni saqlaş tizimiga aylandi.



Navoiy kon-metallurgiya kombinati tibbiy-sanitariya xizmati uzoq tarixga ega. Ötgan asr 50-yillarining ikkinçi yarmida Karmana va Uçquduq aholi punktlarida rivojlanayotgan sanoat hududidagi quruvçilar va işçilarga tibbiy xizmat körsatiş maqsadida dastlabki tibbiyot punktlari faoliyat boşlagan. 1958-yilda ular negizida 1- va 2-son şifoxonalar taşkil etilib, tibbiy-sanitariya tizimiga poydevor qöyilgan.

Turli yillarda xizmatga uning rivojlanişiga munosib hissa qöşgan tajribali mutaxassislar rahbarlik qilgan. Ayni paytda tizimni modernizatsiya qiliş va ilğor tibbiy texnologiyalarni joriy etiş işlari izçil davom ettirilmoqda.

Özbekiston mustaqillikka erişganidan söng NKMK soğliqni saqlaş tizimida keng kölamli özgarişlar amalga oşirildi. 1993-yilda Navoiy, Uçquduq, Zarafşon, Nurobod va Zafaroboddagi bölinmalarni birlaştirgan yagona tibbiyot muassasalari tarmoği taşkil etildi. Bu, birlamçi tibbiy yordamdan tortib, yuqori texnologiyali davolaşgaça bölgan tibbiy xizmatning uzluksizligini ta'minlaş imkonini berdi.

Bugungi kunda tibbiy-sanitariya xizmati bir qator mustaqil bölim va bölinmalarni qamrab oladi. Ularda 500 nafardan ortiq şifokor hamda 1 500 nafardan ziyod örta tibbiyot xodimi mehnat qilmoqda. 2026-yil holatiga köra, kombinat xodimlari, pensionerlar va boşqa taşkilotlar xodimlarini ham qamrab olgan holda, 30 ming nafardan ortiq kişiga tibbiy xizmat körsatilmoqda.

Xizmatning zamonaviy tuzilmasi tibbiyotning deyarli barça yönalişlarini qamrab olgan. Uning tarkibiga kattalar, bolalar va stomatologiya poliklinikalari, ayollar maslahatxonalari, klinik-diagnostika laboratoriyalari, ixtisoslaştirilgan statsionarlar, jarrohlik, terapiya, nevrologiya va pediatriya bölimlari, tez tibbiy yordam xizmati, sanitariya-epidemiologiya bölinmalari, reanimatsiya va qon quyiş bölimlari hamda boşqa bölinmalar kiradi. Har yili statsionarlarda 30 ming nafardan ortiq bemor davolanadi, ambulator xizmatlar böyiça esa 1,4 milliondan ziyod taşrif qayd etiladi.

Neyroxirurgiya, urologiya, travmatologiya va ortopediya, oftalmologiya hamda otorinolaringologiya yönalişlarida murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajariş yölga qöyildi. Böğimlarni endoprotezlaş, laparoskopik aralaşuvlar, kataraktani fakoemulsifikatsiya usulida davolaş, plazmaferez va boşqa zamonaviy muolajalar amalga oşirilmoqda. Kam invaziv davolaş usullarining keng joriy etilişi bemorlarning tiklaniş muddatini qisqartirişga xizmat qilmoqda.

Xizmatning diagnostika bazasi muntazam takomillaştirilmoqda. Tibbiyot muassasalarida MRT va MSKT apparatlari, zamonaviy



ultratovuş tekşiruvi uskunalari, endoskopik jihozlar, Xolter monitoringi tizimlari, jigar fibroelastografiyasi apparatlari hamda sönggi avlod laboratoriya analizatorlaridan foydalanilmoqda. Bu, kasalliklarni erta bosqiçlarda aniqlaş va davolaş samaradorligini oşiriş imkonini berayapti.

Kombinat tibbiy xizmatini rivojlantirişdagi muhim voqealardan biri Navoiy şahridagi Tibbiy-sanitariya bölimida zamonaviy angiografiya bölimining oçilişi böldi. Yangi bölim kombinat xodimlari, ularning oila a'zolari hamda mintaqa aholisi uçun, ayniqsa, öz vaqtida taşxis qöyiş va davolaş, yurak-qon tomir kasalliklarida yuqori texnologik ixtisoslaştirilgan tibbiy yordamdan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirişda muhim qadamdir.



Bölim zamonaviy angiografik majmua, şuningdek, zarur reanimatsiya uskunalari va defibrillyatorlar bilan jihozlangan bölib, murakkab diagnostik tekşiruvlar va davolaş muolajalarini, jumladan, şoşilinç holatlarda ham amalga oşiriş imkonini beradi. Bölimda yuqori malakali mutaxassislar — Rossiyadagi A. N. Bakulev nomidagi Yurak-qon tomir jarrohligi ilmiy-tadqiqot institutida ta'lim olgan, katta amaliy tajribaga ega intervension kardiologlar faoliyat yuritmoqda.

Angiografik majmua yordamida yurakning koronar arteriyalari holatini baholaşga qaratilgan koronarografiya tekşiruvi, şuningdek, tibbiy körsatmalarga muvofiq koronar va periferik qon tomirlarda endovaskulyar aralaşuvlar, jumladan, stentlaş amaliyotlari bajariladi. Uşbu zamonaviy usullar zararlangan qon tomirlarda qon oqimini tiklaş, a'zo va töqimalarning qon bilan ta'minlanişini yaxşilaş hamda yurak-qon tomir kasalliklari bilan oğrigan bemorlarni davolaş imkoniyatlarini kengaytirişga xizmat qiladi.

Bundan taşqari, tegişli tibbiy körsatmalar mavjud bölganda, baçadon miomasini davolaş maqsadida baçadon arteriyalarini embolizatsiya qiliş kabi ixtisoslaştirilgan endovaskulyar muolajalar ham bajariladi. Kam invaziv texnologiyalar katta jarrohlik kesmalarisiz davolaş imkonini berib, aralaşuvning jarohatlovçi ta'sirini kamaytiriş va bemorlarning tezroq tiklanişiga yordam beradi.

Yuqumli kasalliklarning oldini olişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Emlaş milliy emlaş taqvimiga muvofiq ötkazilib, maqsadli guruhlar 100 foizgaça qamrab olinmoqda. Natijada xizmat körsatiladigan aholi orasida köplab yuqumli kasalliklar deyarli uçramayapti. Zamonaviy laboratoriyalar donor qoni sifatini nazorat qiliş va turli kasalliklarni öz vaqtida aniqlaşni ta'minlayapti.

Sönggi yillarda tibbiy infratuzilmani rivojlantirişga salmoqli mablağlar yönaltirilmoqda. 110 milliard sömdan ortiq mablağ evaziga 200 dan ziyod zamonaviy tibbiy uskuna xarid qilindi. Binolar rekonstruksiya qilinmoqda, tibbiyotga raqamli texnologiyalar va avtomatlaştirilgan tizimlar joriy etilayapti. Kelgusi yillarda tibbiy xizmat imkoniyatlarini yanada kengaytiriş rejalaştirilgan.

Mutaxassislar malakasini muntazam oşirib boriş orqali tibbiy yordam sifatini yuqori darajada saqlaş ta'minlanmoqda. Şifokorlarimiz Özbekistonning yetakçi tibbiyot markazlarida va xorijda ta'lim olib, xalqaro stajirovkalar hamda mahorat darslarida iştirok etişmoqda. Sönggi yillarda 1 300 nafardan ortiq mutaxassisning malakasi oşirildi, ularning köpçiligi yangi klinik yönalişlarni özlaştirdi.

Xodimlarni ijtimoiy qöllab-quvvatlaş ham tizim faoliyatining muhim yönalişlaridan biridir. Kasaba uyuşmasi xodimlarni soğlomlaştiriş, böş vaqtlarini mazmunli taşkil etiş, moddiy yordam körsatiş va ularning huquqlarini himoya qiliş bilan faol şuğullanmoqda. Xodimlarga sanatoriylarga yöllanmalar ajratilib, sport bilan şuğullaniş va tölaqonli dam olişlari uçun şaroitlar yaratilayapti.

Tibbiyot xodimlarining mehnati davlat miqyosida yuksak e'tirof etilayotganligi barçamizni behad quvontirmoqda. Köplab mutaxassislarimiz davlat va sohaviy mukofotlar bilan taqdirlanişayapti. Ye.V.Soy, G.S.Açilova va boşqalar şular jumlasidandir. Ularning har bir yutuği yuksak kasbiy mahorat namunasidir.

NKMK tibbiy-sanitariya xizmati jadal rivojlanişda davom etmoqda. Kasallaniş darajasini yanada pasaytiriş, kasb kasalliklarining oldini oliş, innovatsion texnologiyalarni joriy etiş, pullik tibbiy xizmatlarni rivojlantiriş va soğlom turmuş tarzini tarğib qiliş ustuvor vazifalarimizdandir. Uşbu yönalişlar erişilgan natijalarni mustahkamlaş bilan birga, tibbiy xizmat tizimini yangi bosqiçga olib çiqişga xizmat qiladi.

Tibbiyot xodimlarining kasb bayrami munosabati bilan NKMKning barça tibbiyot xodimlari — şifokorlar, hamşiralar, feldşerlar, laborantlar, diagnostika bölinmalari xodimlari va tez tibbiy yordam brigadalarida şarafli burçini sidqidildan ado etayotgan soha xodimlarini qizğin muborakbod etib, barçalariga mustahkam soğliq, oilaviy farovonlik, kuçğayrat tilaymiz. Ularga kasbiy bilim va tajribangiz eng murakkab vaziyatlarda ham töğri yeçim topişga yordam bersin, bemorlarning minnatdorligi esa tanlagan kasbingizga bölgan işonçingizni yanada mustahkamlasin, deya tilak bildiramiz.

Alişer TÖQSANOV,
"NKMK jamğarmasi" davlat muassasasi Navoiy tibbiy-sanitariya bölimi boşliği.

Tez tibbiy yordam xizmatini rivojlantirişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Brigadalar defibrillyatorlar va hayotiy muhim funksiyalarni qöllab-quvvatlaşga möljallangan portativ tizimlarni öz içiga olgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Avtopark muntazam yangilanib, avtomobillar bemorlarni, jumladan, uzoq masofalarga ham xavfsiz taşiş uçun zarur vositalar bilan ta'minlanmoqda.

Aholi uçun birlamçi tibbiy yordamdan imkon qadar qulay va erkin foydalaniş şaroitlari yaratilgan. Profilaktik köriklar, dispanserizatsiya, emlaş tadbirlari hamda sanitariya-ma'rifiy işlar muntazam amalga oşiriladi.

Sönggi yillarda NKMK tibbiy-sanitariya xizmati yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar kölamini sezilarli darajada kengaytirdi.





■ Tahlil va taqqos

SAHRO TITANI VA SAVANNA GIGANTI

yoxud Qizilqumdan Wall Street’gaça bölgan oltin zanjiri haqida

Yaqinda Yevroosiyo taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan e’lon qilingan nufuzli hisobot e’tiborimni tortdi. Unda alohida urğu berilişiça, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Özbekistonning “iqtisodiy xavfsizligi” va valyuta zaxiralari barqarorligini kafolatlovçi boş strategik aktivi sanaladi.

Respublika iqtisodiyotida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining moliyaviy ta’siri va salmoği mutlaq yetakçilikka ega. Ötgan-2024-yili mamlakat yalpi içki mahsulotining qariyb 6,3 foizi, umumiy sanoat mahsuloti hajmining 10,3 foizdan ortiği hamda davlat byudjeti daromadlarining 16 foizi bu gigant korxona hissasiga töğri kelgan. Korxona byudjetga 35,4 trillion söm soliq tölagan.

2025-yilga-kelib, dunyo bozorida oltin narxining tabiiy-geosiyosiy omillar fonida şiddat bilan oşişi natijasida, kombinatning sof foydasi 3,5 milliard AQŞ dollarini, yillik tuşumi esa 10,8 milliard AQŞ dollarini taşkil etdi. Sanoat mahsulotlari işlab çiqariş hajmi-2024-yildagi 93,9 trillion sömlikdan 135,6 trillion sömlikka ösdi. Natijada, byudjetga tölangan soliqlar 54,6 trillion sömni, davlatga tölangan dividendlar esa 39,2 trillion sömni taşkil etib, kombinatning mamlakatimiz byudjet daromadlaridagi uluşi 20 foizdan oşdi.

Iqtisodiy tahlilçilarning fikriça, kombinat siyosatining asosiy ustunligi uning doimiy özgarib turadigan taşqi bozor konyunkturasi va global xavf-xatarlarga tez moslaşa olişidadir. Xuş, xalqaro moliya muassasasi ekspertlarining bu e’tirofi zamirida nima yotibdi? Kombinat iqtisodiyoti taşqi muhit şabadalariga qançalik çidamli? Bu savollarga javobni kombinat tasarrufidagi kon va gidrometallurgiya zavodlarining texnologik zanjiri hamda uni jahonning boşqa qutbidagi gigantlar bilan qiyoslaş asnosida topişga harakat qilamiz.





GLOBAL XARITADAGI IKKI QUTB

Jahon toğ-kon sanoati xaritasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Janubiy Afrika Respublikasining “Harmony Gold” transmilliy korporatsiyasi alohida maqomga ega. Bir-biridan minglab kilometr uzoqlikda joylaşgan, iqlim va boşqaruv tizimlari tubdan farq qiluvçi uşbu subyektlar aslida global oltin bozorining konturlarini belgilab beruvçi asosiy kuçlar sanalişadi.

Geoiqtisodiy jihatdan qaraganda, yer yuzida oltin qazib olişning ikki yirik markazilaridan bölgan bu ikki gigantlarning faoliyat falsafasini örganiş konçilik maktablarining kelajagini anglaşga yordam beradi.

NIMA UÇUN “HARMONY GOLD”?

Biz, nega Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufidagi kon va gidrometallurgiya zavodlarining texnologik zanjirini aynan “Harmony Gold” transmilliy korporatsiyasi bilan qiyosladik? Buning öziga xos sabablari bor. Birinçidan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda “Harmony Gold” transmilliy korporatsiyasining resurs bazasi noyobligi va strategik maqomi jihatidan bir xil. Kombinat tarkibidagi “Muruntov” va “Qoqpatas” konlari zaxiralari böyiça dunyoda mutlaq yetakçilardan sanaladi. Öz navbatida, “Harmony Gold” tasarrufidagi “Mponeng Gold Mine” şaxtasi ham sayyoramizdagi eng boy va yuqori konsentratli oltin ma’dan tomirlariga ega kon hisoblanadi.

Global liderlik va xalqaro nufuz borasida ham kuçli öxşaşliklar mavjud. Masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati dunyodagi eng yirik oltin işlab çiqaruvçi Top beştalikdan törtinçi örinni mustahkamladi. Uning “Muruntov” koni oçiq usulda qazib oliş böyiça yer yuzida tengsizdir. Uzunligi 6 kilometrga yaqin, eni qariyb 4 kilometr, çuqurligi 750 metr bölgan gigant konning umumiy mineral resurslari hajmi 113,6 million unsiyani taşkil etadi.

“Harmony Gold” transmilliy korporatsiyasining “Mponeng Gold Mine” şaxtasi sayyoramizdagi eng çuqur kon sanaladi. Eng muhimi, ikkala gigant korxona mahsuloti ham London oltin quymalari bozori uyuşmasi (LBMA) tomonidan tan olingan oliy sifatli “Işonçli yetkazib beruvçi” (“Good Delivery”) maqomiga ega. Yana bir öxşaşlik şundaki, ikkala korxona ham şaharlar va yirik megapolislarning paydo bölişi hamda gullab-yaşnaşiga zamin yaratgan. Navoiy kombinati Navoiy, Zarafşon, Uçquduq, Nurobod, Marjonbuloq va Zarkent kabi butun boşli şahar va qörğonlarning infratuzilmasi hamda iqtisodiy hayotini ta’minlovçi boş manba bölsa, “Harmony Gold” Yoxannesburg, Velkom va Karletonvill kabi yirik aholi yaşaş markazlarining paydo bölişiga sababçi bölgan.

Tabiiy resurslarga boy ikkala mamlakat uçun ham konçilik sanoati iqtisodiyotning strategik ustuni hisoblanadi. Bu boyliklardan samarali foydalaniş orqali har ikki davlat ham iqtisodiy ösişni ta’minlaş, eksport salohiyatini oşiriş, valyuta tuşumini kafolatlaş va yangi iş örinlarini yaratiş imkoniyatiga ega bölişmoqda. Biroq, vaqt ötişi bilan konlarning çuqurlaşib borişi va qazib oliş xarajatlarining oşişi eng zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilişni taqozo etmoqda. Ya’ni, yangi texnologik yeçimlarga bölgan ehtiyoj darajasi ham öxşaş. Masalan, kombinatning “Zarmitan” koni tarkibidagi şaxtalar çuqurligi ming metrga yetayotgan bölsa, “Mponeng Gold Mine” şaxtasining çuqurligi qariyb 4000 metrga yetdi. Bu esa, öz-özidan, ortiqça çiqim va texnologik murakkabliklarni keltirib çiqaradi. Xarajatlarni kamaytiriş va işlab çiqariş samaradorligini oşiriş maqsadida ikkala korxona ham sohaga yangi innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etişga birdek intilib kelmoqda.

OPERATSION VA FALSAFIY TAFOVUTLAR

Garçi işlab çiqarilayotgan mahsulot turi bir xil bölsa-da, yer qa’ridagi xazinani özlaştiriş usullari, texnologik muhit, tannarx va boşqaruv şaroitlari tubdan farq qiladi. Ularning bir-biridan farq qiluvçi asosiy özига xosligi şundaki, geologik joylaşuvi, konçilik turi va operatsion xarajatlari örtasidagi tafovutning kattaligidir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ma’danlar asosan oçiq usulda, ya’ni, ulkan karerlarda qazib olinadi. Dunyoning sanoat mo‘jizasi hisoblangan maşhur “Muruntov” kareri buning yorqin ifodasidir. Kombinatda 2026-yilning birinçi yarim yillik yakunlarida bir unsiya oltinning AISC tannarxi dunyodagi eng past 1 647 AQŞ dollari atrofida saqlanib qolmoqda va bu, öz navbatida, yuqori rentabellikni kafolatlaydi. “Harmony Gold” korporatsiyasida esa vaziyat butunlay boşqaça. U yerda ma’dan qazib oliş öta çuqurda joylaşgan şaxtalarda olib boriladi. Korporatsiyaning “Mponeng Gold Mine” şaxtasida çuqurlik ortgani sari yer ostida harorat 66 darajagaça kötariladi. Bu esa konni sovutiş va şamollatiş uçun katta mablağ talab qiladi. Şu bois, “Harmony Gold”da bir unsiya oltinning AISC tannarxi örtaça 2 115-2 195 AQŞ dollarini taşkil etadi. Bu holat xalqaro bozordagi narx tebranişlariga nisbatan janubiy afrikaliklarning pozitsiyasini zaiflaştiradi.

Energiya barqarorligi va operatsion xavflar borasida ham katta tafovut mavjud. Masalan, Navoiy kombinati davlat tomonidan uzluksiz va tizimli ravişda energiya hamda qulay temir yöl logistikasi tarmoqlari bilan ta’minlangan bölib, işlab çiqariş jarayonida kutilmagan töxtalişlar deyarli kuzatilmaydi. “Harmony Gold” esa Janubiy Afrika Respublikasining “Eskom” milliy energetika tizimidagi inqirozlar, tez-tez sodir böladigan ommaviy elektr çeklovlari va milliy kasaba uyuşmalarining yirik iş taşlaşlari sababli yiliga bir neça önlab kunlarni boy beradi, bu esa işlab çiqariş sur’atiga jiddiy salbiy ta’sir körsatadi.

Eng muhimi, uşbu ikkala oltin işlab çiqaruvçining boşqaruv va egalik şaklida ham tubdan farq mavjud. Navoiy kon-metallurgiya kombinati - davlat nazoratidagi, aniq strategik yönalişga ega yirik aksiyadorlik jamiyati bölib, korxona faoliyatidan tuşadigan foyda töğridan töğri Özbekiston xalqi farovonligiga, valyuta zaxiralarini mustahkamlaşga va davlat byudjetiga yönaltiriladi. “Harmony Gold” esa xususiy va transmilliy korporatsiya hisoblanib, uning aksiyalari Nyu-York va Yoxannesburg birjalarida erkin savdoga çiqariladi. Liberal kapital qonuniyati talablariga asosan olingan foyda dunyoning turli mintaqalaridagi xususiy aksiyadorlar örtasida dividend şaklida taqsimlanadi.

KELAJAK SARI IKKI XIL YÖL

Bugun Navoiy kon-metallurgiya kombinati şiddatli transformatsiya davrini boşdan keçirmoqda. Korxona jahon moliya bozorida debyut qilib, London fond birjasida 1 milliard AQŞ dollari qiymatidagi ilk yevrobondlarini (xalqaro obligatsiyalarini) muvaffaqiyatli joylaştirdi. “Fitç Ratings” va “S&P Global Ratings” (Standard & Poor’s) xalqaro reyting agentliklari tomonidan kombinatga Özbekistonning suveren reytingi darajasidagi barqaror investitsiyaviy, degan baho berilişi va korporativ boşqaruv auditining (KPMG, Deloitte singari “katta törtlik” tomonidan) xalqaro standartlarga moslaştirilişi jahon investorlari uçun eşiklarni keng oçdi. Bu borada kombinat “Harmony Gold” transmilliy korporatsiyasi uzoq yillardan beri suzib yurgan global moliyaviy ummon — Wall Street va yirik xalqaro birjalar tizimiga dadil kirib bormoqda.

Şunday bölsada, bu ikkala gigant korxonaning strategik rivojlaniş yönalişlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, “Harmony Gold” korporatsiyasi Janubiy Afrika Respublikasidagi “Mponeng Gold Mine” koni eskirişi, qaziş işlarining haddan taşqari çuqurlaşib, xavfli tus olişi va içki energiya inqirozi sababli öz kapitalini faol diversifikatsiya qilmoqda. Masalan, korporatsiya Avstraliyadagi “Eva Copper” loyihasini sotib oldi hamda Papua-Yangi Gvineyadagi yirik “Wafi-Golpu” mis-oltin loyihasiga milliardlab dollar investitsiya kiritib, öz faoliyatini iqtisodiy va texnik jihatdan xavfsizroq mintaqalarga köçirmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati esa bor e’tibori va investitsiyasini Qizilqum sahrosi, Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi kon boşqarmalarining içki imkoniyatlarini kengaytiriş va raqamlaştirişga qaratgan. Bugun kombinat tarkibidagi barça konlar va gidrometallurgiya zavodlarida portlatiş, ma’dan taşiş va oltinni boyitiş jarayonlari sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida boşqarilmoqda. Konlarda karer avtotransporti harakatini optimallaştiruvçi intellektual tizimlar örnatilib, “Aqlli kon” modeli va uglerod dioksidi çiqindilarini kamaytiruvçi “yaşil texnologiyalar” joriy etilişi böyiça inqilobiy qadamlar taşlamoqda.

IQTISODIY TAHLILÇILAR QANÇALIK HAQ?

Yevroosiyo taraqqiyot banki ekspertlarining Navoiy kon-metallurgiya kombinati töğrisidagi fikrlari nafaqat quruq raqamlarda, balki korxonaning bugungi strategik muvaffaqitida ham öz tasdiğini topmoqda. Qizilqum bağridagi “Muruntov” va Afrika savannalaridagi “Harmony Gold” korporatsiyasining “Mponeng Gold Mine” şaxtasi faqatgina qimmatbaho metallar makoni emas, balki milliy va global barqarorlik sinovdan ötadigan ikki yirik iqtisodiy maydondir. Janubiy Afrika Respublikasining “Harmony Gold” kabi korporatsiyalari jahon moliya bozorlarining beqarorligi şaroitida öz faoliyatini boşqa qit’alarga köçiriş orqali jon saqlayotgan (xavflarni kamaytirayotgan) bölsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinati davlatning işonçli strategik qalqoni sifatida içki transformatsiya va texnologik inqilob davrini boşdan keçirmoqda.

Kombinatning taşqi muhitga tez moslaşa olişining ustuvorligi şundaki, u an’anaviy davlat korxonasi qoliplaridan çiqib, xalqaro kapital bozorining faol, şaffof va oçiq iştirokçisiga aylanmoqda. Işlab çiqarişga raqamlaştiriş, sun’iy intellekt texnologiyalari va “yaşil konçilik” tamoyillarining dadil joriy etilişi kombinatga nafaqat oltin qazib oliş hajmi böyiça dunyo yetakçilari qatorida qoliş, balki mahsulot tannarxining pastligi (AISC böyiça dunyodagi eng arzon oltinlardan biri) böyiça ustuvorlikni saqlab qoliş imkonini bermoqda.

Bu esa jahon bozoridagi har qanday moliyaviy tebranişlar va siyosiy inqirozlar qarşisida kombinat iqtisodiyotining, demakki, butun Özbekiston moliyaviy tizimining yuqori immunitetini kafolatlaydi. Birgina, oltin narxining jahon birjalarida rekord darajalarga-(2026-yilning 1-iyul xolatiga 1 unsiya uçun 4506 dollardan oşişi) çiqişi fonida, kombinatning Özbekiston valyuta zaxiralarini mustahkamlaşdagi roli ikki karra ortdi.

Bugun sahro va savanna konçilik maktablari dunyoga asl xazina faqatgina yer qa’ridagi xomaşyoda emas, balki uni davlat va xalq manfaatlari yölida xizmat qildira oladigan strategik boşqaruv va texnologik tafakkurda ekanligini isbotladi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati Özbekistonning global iqtisodiy maydondagi eng mustahkam brendi sifatida namoyon bölmoqda. Iqtisodiy barqarorlik, rivojlaniş va xavfsizlikning bunday qudratli poydevori esa, yangilanayotgan Özbekistonning ertangi taraqqiyotiga bölgan işonçni yanada mustahkamlaydi.

Mansur HUSANOV.

■ “101” xabar qiladi

XAVFSIZLIK – ENG ASOSIY USTUVORLIK

Şimoliy kon boşqarmasiga qaraşli korxona va taşkilotlarda favqulodda vaziyatlarning oldini oliş hamda yonğin xavfsizligini ta’minlaş böyiça tizimli çora-tadbirlar amalga oşirilmoqda. Favqulodda vaziyatlar bölimi tomonidan kon boşqarmasi obyektlarida muntazam ravişda tekşiruvlar ötkazilib, yonğin xavfsizligi qoidalariga rioya etilişi nazorat qilinmoqda, aniqlangan kamçiliklarni bartaraf etiş yuzasidan tegişli körsatmalar berilyapti.

Profilaktik tadbirlar doirasida birlamçi yonğin öçiriş vositalari, signalizatsiya va suv ta’minoti tizimlarining şayligi, evakuatsiya yöllarining oçiqligi hamda elektr jihozlaridan foydalanişda xavfsizlik qoidalariga amal qilinişi alohida e’tiborda bölayapti. Işçi-xodimlar bilan yonğin xavfsizligi böyiça yöriqnomalar ötkazilib, ularning mas’uliyati va tayyorgarlik darajasi oşirilmoqda.

Olib borilayotgan qat’iy nazorat tadbirlari natijasida, joriy yilning ötgan töqqiz oyi davomida yonğin xavfsizligi qoidalarini qöpol ravişda buzgan 418 nafar xodimga nisbatan ma’muriy jarima çoralari qöllanildi. Bu kabi çoralar qonun talablariga sözsiz amal qiliş zarurligini yana bir bor eslatib, har bir işçida xavfsizlik madaniyatini şakllantirişga xizmat qilmoqda. Zero, yonğin xavfsizligi qoidalariga rioya etiş — nafaqat qonun talabi, balki insonlar hayoti va hamkasblar salomatligini asraş demakdir.

Bundan taşqari, obyektlarda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda töğri harakat qiliş könikmalarini mustahkamlaş maqsadida rejali maşq va amaliy maşğulotlar taşkil etilayapti. Ularda xodimlarni öz vaqtida xabardor qiliş, xavfsiz evakuatsiya qiliş va yonğinni boşlanğiç bosqiçda bartaraf etiş usullari amalda sinab körilmoqda. Bu esa kutilmagan vaziyatlarda tez va töğri qaror qabul qiliş imkonini beradi.


Amalga oşirilayotgan bunday tizimli işlar xodimlar hayoti va soğliğini, korxona mulkini muhofaza qiliş hamda işlab çiqariş jarayonining uzluksizligini ta’minlaşga qaratilgan.

Davron ASADOV,
Şimoliy kon boşqarmasi obyektlarida favqulodda vaziyatlar bölimi kiçik inspektori, 2-darajali serjant.

■ Xabar

ZAMONAVIY BURĞILAŞ DASTGOHI

konçilik işlari samaradorligini oşirmoqda



Konçilik sanoatida qöllaniladigan “Sandvik D75KX” rusumli burğilaş dastgohi yuqori quvvati va texnik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Dizel dvigatelida işlaydigan, gusenitsali mazkur texnika vositasi portlatiş quduqlarini çöktirma zarbali va aylanma usullarda burğilaşga möljallangan.

Dvigateli yuqori quvvatli ekanligi tufayli dastgoh 52,5 metrgaça çuqurlikdagi quduqlarni burğilaydi. Aylanma burğilaşda quduq diametri 215,9–279 millimetrni taşkil etadi.

Texnika operator xavfsizligini ta’minlaşga qaratilgan himoyalangan kabina, şuningdek, burğilaş jarayonida çangni kamaytiriş tizimi bilan jihozlangan. Uning konstruksiyasi oğir konçilik şaroitlarida işlaş imkonini oşiradi. Ayni paytda mazkur dastgohlardan “Muruntov” konida foydalanilmoqda.

– Zamonaviy burğilaş dastgohlari konçilik işlarini samarali taşkil etiş va işlab çiqariş jarayonlarini takomillaştirişda muhim ahamiyat kasb etayapti, – deydi kon boş muhandisining burğilaş işlari böyiça örinbosari Mansur Amonov.

Konda ikkita “Sandvik D75KX” rusumli burğilaş dastgohi samarali işlatilmoqda.

Azamat ZARIPOV.

■ Yangi naşr

ZAMONDOŞ SATRLAR

yoxud Mahmud Mardiyevning avlodlarga xitoblari



Adabiyot tarixida şunday ijodkorlar böladiki, ular öz davrida şov-şuv bilan emas, jimgina, ammo sidqidildan ijod qiladi: qalamini yurt qismati, inson dardi va söz mas'uliyatiga boğlaydi. Hayotligida ular nomi köp tilga olinmasligi, yozganlari esa gazeta va jurnal sahifalarida qolib ketişi mumkin. Ammo vaqt ötib, ana şu satrlar butun ijodiy siymo, yaxlit dunyoqaraş va öziga xos ovoz bölib qad rostlaydi. Jurnalist, şoir va publitsist Mahmud Mardiyevning şe'rlari, qatralari va maqolalaridan tarkib topgan "Sokin qönğiroq" kitobi ham aynan şunday noyob jamlanma sanaladi. Söz san'atkori qisqa umri davomida yaratgan ijodining eng saralari jamlangan uşbu naşr muallifning ma'naviy mas'uliyat mahsuli sifatida alohida e'tiborga loyiq. Hayot bölganida Mahmud Mardiyev joriy yil yetmiş bahorni qarşilagan bölardi. Kitob fidoyi ijodkor, jonkuyar ustoz Salima Umarovaning taşabbusi va homiyligida çop etilgani, naşrga tayyorlaşda ijodkorlar Ruslan Saburov va Salima Xoldorova kömaklaşganini ham ta'kidlaş kerak. Bunday taşabbuslar adabiy jarayonda juda muhim: marhum ijodkorning merosini yöqotmay, uni yangi avlod öquvçisiga yetkaziş — şunçaki hurmat belgisi emas, balki milliy adabiy xotirani asraşdagi katta fidoyilikdir.

Kitob uç asosiy qatlamdan iborat: şe'rlar, qatralar (aforistik soçmalar) va publitsistik maqolalar. Bu uç qatlam bir-biridan farqli janrlarda bölsa-da, ularni yagona ğoyaviy ip boğlaydi — inson qalbi, sözning kuçi va vaqt oldidagi mas'uliyat. Kitobga sözboşi yozgan adib va tarjimon Vafo Fayzulloh "Tepalikdagi poliz" sarlavhali xotira bitiklarida Mahmud Mardiyev bilan ilk tanişuvi va "Döstlik bayroği" gazetasidagi birgalikda keçgan faoliyatini esga oladi. U muallif jurnalistikasiga ta'rif berar ekan, "maqolalari ötkir syujetli hikoyaday öqiladi", deb qayd etadi. Yana bir örinda esa "Uning yozganlari inson qismatiga befarq bölmaslikdir", deydi. Kitob sahifalari poyonida Salima Umarovaning "Gözal qalamli ijodkor" sarlavhali maqolasi ham bor. Unda Mahmud Mardiyevning prozaik asarlariga "hikmatbaxş qaydlar" deb ta'rif beriladi. Kitobni sinçiklab öqigan kişi bu ta'rifning örinli ekaniga işonç hosil qiladi: darhaqiqat, muallifning satrlarida hikmat ham, katta hayot darsi ham mujassam.

Kitobda keltirilgan 100 ga yaqin şe'rlar orasida "Zarafşon" qasidasi alohida örin tutadi. Şe'r bir qaraşda daryoga bağişlangan tasvir kabi körinsa-da, aslida tarix, millat taqdiri va kelajakka umid haqidagi muşohadadir. Uning kompozitsiyasi ham öziga xos: har bir band "oqdi Zarafşon" radifi bilan yakunlanadi, ammo har gal bu radif oldiga yangi ma'no qatlami qöşiladi. Birinçi bandda:

Asrlarning dardini söylab
Bu yurtlarda aylandi davron.
Qirğoqlarga umidlar ekib,
Davron bölib oqdi Zarafşon.

Bu yerda daryo şunçaki oqmaydi: u zamonning özi bölib oqadi, öz qirğoqlariga umid uruğini sepadi. Yana bir bandda esa tarix va millat mavzusi kirib keladi:

Temur bobo kötardi yalov,
Sen özingni taniding, Turon.
Millat bölib birlaşding, elim.
Turon bölib oqdi Zarafşon.

Daryo endi davr emas, butun Turon timsoliga aylanadi. Sohibqiron nomining tilga olinişi satrlarga milliy özlikni anglaşdek zalvorli ma'noni olib kiradi. Bu örinda şe'rning ğoyaviy markazi ham oçiladi: tarix bu yerda ötmiş haqidagi quruq eslatma emas, balki millat özligini topişining şarti sifatida talqin etiladi. Yakuniy band esa dard-u hasratdan umid va orzuga tomon burilişni körsatadi:

Hasrat bitdi, qayğu yöqoldi,
Uluğ yölga boşladi sarbon.
Orzu-işonç mangu barqaror,
Karvon bölib oqdi Zarafşon.

Kitobni varaqlayotgan öqirman diqqatini tortadigan bunday yoniq satrlarga köp bora duç keladi. "Dard kökarar" deb boşlanuvçi şe'rda quyidagi band uçraydi:

Şamol uvlar, keçar lahzalar,
Vujudimda uyğonar titroq.
Ergaşaman ortingdan hayot,
Umrim — daraxt, dardlarim — yaproq…

Boşqa bir şe'rda esa deyarli aynan şu misralar biroz özgargan holda keladi:

Şamol uvlar, uçar xazonlar,
Vujudimda uyğonar titroq.
Ergaşaman ortingdan, Hayot,
Umrim — daraxt, dardlarim — yaproq.

Farqlar kiçik, ammo ma'noli. "Umrim – daraxt, dardlarim – yaproq" metaforasi esa muallif dunyoqaraşining kalit formulalaridan biridir. Mana şu öxşaş band ikki şe'rda qayta kelişi öquvçini Mahmud Mardiyevning ijodiy laboratoriyasiga yaqinlaştiradi: şoir özi yoqtirgan obrazni bir martalik qöllab qoldirmaydi, uni turli kontekstda sinab köradi, jilolaydi. Zamonaviy adabiyotşunoslikda bunday hodisa matnşunoslik nuqtayi nazaridan ham katta qiymatga ega. Yana bir gözal ijod mahsuli – "Burgut" şe'rida muallif burgut siymosi va uning mağrurligini satrga oladi. Şe'rning sönggi törtligi esa nafaqat tabiat manzarasi, balki ijodkorning öz yöli haqidagi xitob sifatida jaranglaydi:

Mening orzum öşa qoyamas,
Oy, yulduzlar menga yaraşur.
Sening kabi toşga suyanmay,
Yuraklarga solsam deyman nur…

Bu törtlikning markazida qarama-qarşilik turibdi: bir tomonda qoya, toş – barqarorlik, lekin özgarmaslik, qotib qolgan tayanç ramzi; ikkinçi tomonda esa oy, yulduz, nur — yuksaklik, yoruğlik va harakat. Lirik qahramon burgutdek balandlikda parvoz qilsa-da, qoyaga suyanişni emas, yurakka nur soçişni orzu qiladi. Bu qaraş ijodkorning ijtimoiy pozitsiyasini ham ifodalaydi: u tayyor tayançga suyanib yaşaşni emas, nur tarqatişni, ya'ni odamlar qalbini yoritişni öz vazifasi deb biladi. Yana bir şe'rdagi quyidagi törtlik ham şu mazmunni davom ettiradi:

Olislarga otib orzuni
Yaşamoqlik buyuk bir şaraf.
Yurakdagi mangu lahzalar,
Asrlarni borar nimtalab…

Kitobdagi şe'rlar orasida "Jaholat manzarasi" şe'ri ham tahsinga loyiq. Mana bu şe'rdagi bir törtlik:

Nahotki bilmaysiz, yetmiş yil burun
Gulxanda gurillab yondik-u çaçvon.
Öşanda şu gulxan yonida turib
Ma'ruza qildingiz: "Baxtlidir inson!"

Bu satrlarda şoir tarixiy xotiraga murojaat qilib, Qatağonlar davri dahşatlariga işora beradi. Muallifning tabiat manzarasini nozik söz qalami bilan çizişi ham diqqatingizni tortadi. Quyidagi şe'rni öqirkansiz toğliklar hayoti öquvçi köz öngida jonlanadi:

Öçoqlarga öt taşlar taşviş,
Qoyalarda örmalaydi şom.
Tun bağrini kuydirib olov,
Boşlanadi qadrdon oqşom...
Yölaklarga tuşar kölanka,
Oy poylaydi kiçik darçani.
Bugun köngili töq osimon,
Varaqlaydi "ming bir keça"ni.
Osmon tölib borarkan bu kez
Uluğbekning yulduzlariga.
Tong yetaklab ketadi bizni
Yerning yaşil kunduzlariga…

Kitobdan "Söz umri", "Fikr", "Yurak", "Qörquv", "Loqaydlik", "Andişa", "Soya", "Zamondoş", "Qaydasan, maftunkor ertak?", "Qöşiq" va boşqa bir qator qatralar örin olgan. Qatra — bir tomçiga siğgan fikr ekanligini inobatga olsak, aslida bu kiçik hajmdagi qaydlarda muallif katta dardlarni — ma'nolarni siğdira olgan. Sarlavhalarning özi yoq adibning qiziqişlari doirasini körsatadi: söz, fikr, yurak, şuningdek qörquv, loqaydlik, andişa kabi insonni içdan belgilovçi tuyğular va holatlar. Ular orasida "Zamondoş" qatrasi kitobning boş ğoyasini mujassam etgani uçun alohida e'tiborga loyiq. Unda şunday deyiladi: "Sen Navoiyga zamondoş emassan. Uning ğazallari senga zamondoş. Sen Amir Temurga zamondoş emassan. Lekin uning şon-şavkati senga zamondoş." Muallif söng murojaatga ötadi: "Kelgusi asrlar qöynida uxlayotgan avlod! Senga zamondoş bölmoqni istayman..." – Mahmud Mardiyevning barça yozganlarida balki ana şu umid yaşaydi: söz vaqt çegarasini yenga oladi, degan işonç. Kitobni öqirkansiz, yuksak söz san'atkori yaratgan satrlar çin ma'noda asrlar böyi yaşaşga haqli sahifalar ekaniga töla amin bölasiz.

Kitobdagi publitsistik maqolalar muallifning dunyoqaraşini boşqa qirradan oçadi. Masalan, "Özini izlayotgan odamlar" maqolasida ötgan asrning 80-yillari hayoti, adabiyotda keçgan hodisalar va Özbekiston mustaqilligining dastlabki yillari haqida yozib, muallif quyidagi savollarni örtaga taşlaydi: "Xöş, bugungi kunda adabiyotning vazifasi nimalardan iborat bölişi kerak? Adabiyot öz öquvçilarini yuksak ğoyalarga, oliy manzillarga da'vat etişdan çarçamadimikin? Adabiyot yulğiçlarni foş etaverib nimalarga erişdi? Öşa foş etilgan kişilar insofli yoki diyonatli bölib qolişdimi? Bugun adabiyot qaysi yöldan bormoqda? Mustaqillik bergan imkoniyatlardan adabiyot ahli qanday foydalanmoqda? Adabiyot bundan keyin ham davr yönalişlariga boğliq bölib qolaveradimi?" Bu savollar bugun ham öta dolzarb. Şu savollar Mahmud Mardiyevning adabiyot haqidagi asl qaraşlarini ham oydinlaştiradi: adabiyot hukm çiqaruvçi emas, qalbni tarbiyalovçi kuç bölmoği lozim. Şu maqolaning davomida muallif: "Uzoq yillar davomida söz vaqt könglida çökib yotdi. Bugun esa söz faqat baqiriqçaqiriqqa aylanib qolmasdan, inson qalbida neça davrlardan beri uxlab yotgan tuyğularni uyğotişi kerak. Bunga uyğoq sözning qudrati yetadi.", deydi. Bugungi axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar davrida Mahmud Mardiyev-30-yillar burun aytgan bu fikrlari neçoğli dolzarbligini payqaş muşkul emas.

Kitobdagi maqolalarning muhim bir qismi hududiy va ekologik mavzularga bağişlangan. "Ufqlarda qolgan armon" maqolasida muallif Qizilqum çölida yastanib yotgan osori atiqalar, undagi konlarni aniqlab, sobiq SSSRga telegrammalar jönatib odamlar mukofotlanayotgan bir paytda, bu konlar sirini oçgan Habib Abdullayev suyunmagani haqida yozadi. Bu voqea alohida e'tiborga loyiq: kaşfiyot egasi tan olinmagan joyda har bir ilmiy yutuq yaxşilik emas, fojiaga aylanadi. Maqola nomidagi "armon" sözi ham şunga işora. Kitobga 1990-yilda çop etilgan "Olmoqning bermoği bor" nomli tahliliy maqolalar ham kiritilgan. Bu sarlavhaning özi ekologik axloq formulasidir: tabiatdan manfaat topgan har bir inson unga xizmat qilişni ham bilişi lozim! Maqolalarda sanoat jadal rivojlanayotgan Qizilqum çölida tabiatga ayovsiz zarar yetkazilişi masalasi kötariladi. Bu kabi mavzularning bugungi dolzarbligi yanada ortgani muallifning tilsiz tabiat va uning kelgusi fojialarini ziyraklik bilan ilgaridan anglaganini körsatadi. Boşqa maqolalar ham hududning tarixiy-madaniy xotirasini jonlantiradi. "Hayot boşlangan joylarda" maqolasida Nurota korizlari tarixi, "Qizilqum quduqlari" maqolasida Tomdi hamda Uçquduq hududlaridagi qadimiy quduqlar haqida söz boradi.

Mazkur kitobning eng katta qiymati şundaki, u muallifni ötmiş siymosi sifatida emas, öquvçi bilan suhbatlaşuvçi zamondoş sifatida qayta "tiriltiradi". Mahmud Mardiyevning "Senga zamondoş bölmoqni istayman" degan sözlari kitobni öqigan har bir avlod qalbini titratadi — öyga soladi! Umid qilamizki, bu kitob keng kitobxonlar doirasiga yetib boradi, maktab va oliy öquv yurtlari kutubxonalaridan munosib örin oladi, tadqiqotçilar uçun esa Mahmud Mardiyev ijodini çuqur örganiş manbai bölib xizmat qiladi.

Ozod MUSTAFO,
Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi a'zosi.

■ Şifokor maslahati

KUZ KELDI, "SAMOLEÇENIE" BOŞLANDIMI?

yoki antibiotiklarni şifokorsiz içişning ayançli oqibatlari haqida

Qizilqum bağrida şarafli mehnat qilayotgan konçilarimiz yurtimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirişga beqiyos hissa qöşib kelmoqdalar. Biroq sahroning keskin kontinental iqlimi, ayniqsa, kuz faslida inson organizmi uçun öziga xos sinovlarni yuzaga keltirmoqda. Yurtimizda ob-havoning özgarişi, haroratning pasayişi kuzatilmoqda. Bunday palla surunkali kasalliklar xuruj qilişi va mavsumiy xastaliklar, ayniqsa, ötkir respirator virusli infeksiyalar (ÖRVI) tarqalişi uchun juda qulay muhit hisoblanadi.



ANTIBIOTIK GRIPP YOKI ÖRVINI DAVOLAMAYDI!

Eng katta va keng tarqalgan xatolardan biri — antibiotikni oddiy şamollaş yoki grippga qarşi dori deb hisoblaşdir. Vaholanki, mazkur infeksiyalarning sababçisi bakteriya emas, balki viruslardir. Antibiotiklar esa faqat va faqat bakterial infeksiyalarni yöqotişga möljallangan. Agar siz ÖRVI yoki grippga çalinganda antibiotik içsangiz, tezroq tuzalmaysiz. Aksinça, soğliğingizga qöşimça zarar yetkazasiz.

• Iç ketişi (disbakterioz) va kuçli allergik reaksiyalar yuzaga keladi;

• Inson hayotiga xavf soluvçi anafilaktik şok kelib çiqişi mumkin;

• Jigar va buyrak yetişmovçiligi bor bemorlarda kasallik oğir asoratlarga olib keladi.

Albatta, zotiljam (pnevmoniya), streptokokkli angina, yiringli otit kabi bakterial infeksiyalarda antibiotik zarur. Biroq kasallik bakterialmi yoki virusli — buni faqat şifokor zarur tahlillar asosida aniqlay oladi.

MULTIÇIDAMLI BAKTERIYA NIMA?

Bugun dunyoda antibiotiklarni notöğri va nazoratsiz qöllaş nafaqat bir bemor salomatligiga, balki butun insoniyatga daxldor jiddiy global muammoga aylandi. Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti (JSST) xavotirli bir statistikani e'lon qildi: agar antibiotiklarga çidamlilikning oldi olinmasa, 2050-yilga borib, doriga çidamli infeksiyalar tufayli har yili Yer yuzida 10 millionga yaqin inson hayotdan köz yumişi mumkin.

Tibbiyotda antibakterial vositalarga çidamlilik va multiçidamlilik tuşunçalari bor. Bakteriya bir neçta turdagi antibiotiklarga bir vaqtning özida könikib, çidamli bölib qolsa, bu multiçidamlilik deyiladi. Ya'ni, vaqti kelib sizda çin vayronkor bakterial kasallik kuzatilsa, sizni davolaşga dunyodagi eng kuçli antibiotik ham ojizlik qilib qoladi. Dorini zaruratsiz içiş — bu kelajakni behuda xavf ostiga qöyişdir.

"MENGA AVVAL ŞU DORI YORDAM BERGANDI..."

Amaliyotda yana bir notöğri könikma bor: "Ötgan yili şamollaganimda falon dorini içib tuzalgandim, bu yil ham şuni içaman". Ammo bir xil belgi doim ham bir xil sababni anglatmaydi. Masalan, yötal virusli infeksiya, oddiy allergiya, yurak xastaligi va yana bir qança kasalliklarda kuzatilişi mumkin. Tomoq oğriğining ham turli xil qözğatuvçilari bor. Şuning uçun dori qabul qilişdan oldin kasallikning asl sababini aniqlaş lozim.

Şuningdek, şifokor tayinlagan dorini belgilangan doza va muddatda içiş şart. Simptomlar ötib ketdi deb, kursni çala qoldiriş bakteriyalarning yanada kuçayişiga olib keladi. Ortib qolgan dorilarni esa keyinçalik qabul qiliş yoki boşqalarga, ayniqsa, bolalarga beriş aslo mumkin emas!

ŞAMOLLAGANDA ASLIDA NIMA QILIŞ KERAK?

Agar şamollaş yoki gripp belgilari yengil keçayotgan bölsa, tanangizga tiklaniş uçun imkon bering:

* Köproq suyuqlik (issiq çoy, kompot, suv) içing.
* Köproq dam olib, jismoniy yuklamalarni kamaytiring.
* Xona havosini muntazam yangilab, namlikni saqlang.
* Şaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qiling.

Tana harorati, boş va tomoq oğriğini yengillaştiriş uçun dori vositalari zarur bölsa, ularni ham şifokor (oilaviy şifokor) tavsiyasi asosida tanlagan ma'qul.

Agar bemorda:

* Nafas oliş qiyinlaşişi yoki his qilinişi;
* Kökrak qafasidagi oğriq;
* Huşning buzilişi yoki kuçli holsizlik;
* Uzoq davom etayotgan yoki juda yuqori harorat;
* Bolalarda — tez-tez nafas oliş va lanjlik (uyquçanlik) xavfli belgilar kuzatilsa, uyda ötiriş yoki özboşimçalik bilan davolaniş jiddiy xavflarni yuzaga keltirişi mumkin. Bunday vaziyatda darhol oilaviy şifokorga yoki "103" tez tibbiy yordam xizmatiga murojaat qiling. Öz soğliğingizga mas'uliyat bilan yondaşing, unutmang, sizni uyda oilangiz, farzandlaringiz kutmoqda. Salomatligingiz — eng katta boyligingizdir!

Feruza QURBONOVA,
oliy toifali şifokor.

■ Sport

SOG'LOM OILA – JAMIYAT TAYANCHI

Özbekiston kasaba uyuşmalari kuniga bağişlab "Otam, onam va men - ahil sportçilar oilasimiz" şiori ostida an'anaviy oilaviy sport musobaqasi ötkazildi.

Navoiy şahridagi "Söğdiyona" jismoniy tarbiya va sport majmuasida taşkil etilgan mazkur bellaşuvda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK va "NKMK jamğarmasi" DM işçi-xodimlari öz oilalari bilan iştirok etdilar.

Qizğin va murosasiz keçgan bahslarda korxonalardan kelgan 10 dan ortiq jamoa özaro kuç sinaşdi. Musobaqa şartlariga köra, jamoalar tarkibi ota-ona hamda ularning 9 yoşdan 12 yoşgaça bölgan farzandlaridan taşkil topdi. Oilalar birdamlik, çaqqonlik va tezkorlik talab etiladigan turli sport şartlari böyiça maydonda bor mahoratlarini namoyiş etdilar. Ayniqsa, kiçkintoylarning ğalabaga bölgan intilişi va ota-onalarning ularni qöllab-quvvatlaşi musobaqaga özgaça şukuh, iştirokçi va tomoşabinlarga yuqori kayfiyat bağişladi.

Murosasiz bahslar yakuniga köra, faxrli birinçi örinni "Qizilqum" kon boşqarmasi xodimi Gulnora Pölatovaning oilasi qölga kiritdi. Ikkinçi va uçinçi örinlar esa Janubiy kon boşqarmasi va Navoiy maşinasozlik zavodi şarafini himoya qilgan Jamşid Örolov hamda Lobar Toirovalar oilasiga nasib etdi.



- Bugungi musobaqa oilamiz uçun haqiqiy sport bayramiga aylandi, — deydi ğolib jamoa vakili Gulnora Pölatova. - Farzandimiz bilan bir jamoa bölib maydonga tuşiş, nafaqat ğalaba quvonçini, balki oilamiz jipsligini yanada çuqur his qiliş imkonini berdi. Bizga mana şunday şaroitlarni yaratib bergan musobaqa taşkilotçilariga öz minnatdorçiligimizni bildiramiz.

Musobaqa yakunida ğoliblikni qölga kiritgan va faol iştirok etgan barça jamoalarga taşkilotçilar tomonidan faxriy diplomlar hamda qimmatbaho esdalik sovğalari tantanali ravişda topşirildi.

Buday tadbirlar nafaqat xodimlarning salomatligini mustahkamlaş, balki mehnat jamoalari va oilalardagi ahil-inoqlik muhitini yanada kuçaytirişga xizmat qiladi.

Z.OLIMOV.

KONÇILAR HAYOTI
MUASSIS: "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta röyxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

Tahririyat manzili: 210100. Navoiy şahri, Navoiy köçasi, 27-uy, "NKMK" AJ boşqarmasi
Telefonlar: Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta çop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamğarmasi" DM bölinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazeta "Konçilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noşir Lux" MÇJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Naşr sifati böyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etişingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand şahri, Spitamen köçasi, 270-uy.

Navbatçi: **Mansur HUSANOV**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qoğoz bichimi A2. 11200 nusxada çop etildi. Buyurtma № 439. 2026-yil 13-noyabr 17:00 da çop etişga topşirildi.